

SH. SARIQOV, SH. DADASHEVA,  
H. XOTAMOVA

# IQTISOD VA SOLIQ ALIFBOSI

Qayta ishlangan uchinchi nashr

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining  
2-sinfi uchun o'quv qo'llanma

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi  
umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun o'quv qo'llanma sifatida  
tavsiya etgan*

Majburiy  
bepul nusxa

TOSHKENT  
"YANGIYO'L POLIGRAF SERVIS"  
2016

330(075.2) - Usmuroq  
S-32

**Loyiha rahbari** — O'zbekiston Respublikasi  
Davlat Soliq qo'mitasi raisi **B. Parpiyev**

*Davlat Soliq qo'mitasi raisining  
birinchi o'rinbosari E. Gadoyev umumiy tahriri ostida*

**Taqrizchilar:** **N. Do'stmurodova** – Toshkent shahridagi 28-maktab o'qituvchisi.  
**M. Jo'rayeva** – XTV tasarrufidagi aniq fanlarga ixtisoslashgan  
maktabning iqtisodiyot o'qituvchisi

**Materiallarning fanlar bo'yicha taqsimlanishi:**



– O'qish



– Atrofimizdagi olam



– Ona tili



– Matematika



– Mehnat



– Odobnoma


UO'K: 37.015.6(075) (075.2)  
KBK 65  
S-32

**Sariqov Sh.**

Iqtisod va soliq alifbosi : umumiy o'rta ta'lim maktablarining 2-sinfi uchun o'quv qo'llanma  
/ Sh. Sariqov, Sh. Dadasheva, H. Xotamova. - Qayta ishlangan 3-nashr. - Toshkent :  
Yangiyo'l Poligraf Servis, 2016. - 32 b.

UO'K: 37.015.6(075)  
KBK 65.261.4ya71

ISBN 978-9943-979-59-8



© «Yangiyo'l poligraf servis», 2016.  
© Sh. Sariqov, 2016.



## I. BOZOR VA SAVDO-SOTIQ

1.1. Tovar nima? Xizmatlar va ularning turlari. Hamma mahsulot ham tovar bo'la oladimi? Kimlar soliq to'laydi?

1. O'qing.

### Chevar qiz


Gulmiraning opasi chevar. U opasidan chevarlik sirlarini o'rganib oldi. Gulmira ham qo'g'irchoqlariga ko'ylakchalar tikib berdi.

Gulmiraning opasi tikkan ko'ylaklarini kiyim-kechak sotiladigan do'konlarga topshiradi. Sotuvchilar bu ko'ylaklarni sotib, pulini Gulmiraning opasiga beradilar.

Gulmira bir kuni opasidan:

— Opajon, nima uchun ko'ylaklarni kiyim-kechak sotiladigan do'konlarga topshirasiz? — deb so'radi.

— Men gazlamalardan ko'ylaklar tikaman. Tikilgan tayyor ko'ylaklar **mahsulot** bo'ladi. Kiyimlar sotiladigan





do'konlarda esa mahsulot **tovarga** aylanadi. Barcha sotiladigan narsalar tovar deyiladi. Demak, men tikkan ko'ylaklar "tovar" bo'lib, sotuvchilar ularni sotadilar, — deb javob berdi opasi. — Ko'ylaklarni sotishdan tushgan pullar mening daromadim hisoblanadi. Bu daromaddan men davlatga soliq to'layman.

### Savollarga javob bering:

1. Tovar nima?
2. Gulmira tikkan ko'ylakchalar ham tovar bo'ladimi?
3. Rasmlarni kuzating. Qaysi rasmdagi ko'ylak tovar? Nima uchun? Nega boshqa rasmdagi ko'ylak mahsulot?
4. Gulmiraning opasining daromadi nima?
5. U bu daromaddan davlatga nima to'laydi?

## Kattalar uchun

**Soliq** – bu odamlar va korxonalar tomonidan davlatga to'lanadigan majburiy to'lovdir.

Bu pul davlat tomonidan qarilik pensiyalari, yosh bolali oilalarga nafaqalar berish, maktab va shifoxonalarni ta'mirlash kabi maqsadlarga ishlatiladi.

2. Rasmlarni kuzating. Qaysi paypoqni tovar desak bo'ladi? Nima uchun? Ikkala paypoq ham bir xil-ku?





3. Bu narsalar qaysi paytda tovarga aylanadi?

- Buvingiz ekkan qulupnay;
- Fermerning qayta ishlash uchun zavodga sotgan qulupnayi;
- Choyga solish uchun olingan shakar;
- Qandolat mahsulotlari tayyorlash uchun olingan shakar;
- Onangiz siz uchun to'qigan paypoq;
- Onangiz siz uchun do'kondan olgan paypoq.



4. Savollarga javob bering:

- Shoxobchalarda sotilayotgan nonlar tovar bo'ladimi?
- Onangiz yopgan non ham tovar bo'la oladimi? Nima uchun bunday?
- Onangiz yopgan noni uchun soliq to'laydimi? Nima sababdan?



5. Rebusni yeching. Topilgan so'zlarning ma'nosini ayting.





## Kattalar uchun

**Tovar** – o'z iste'moli uchun emas, balki bozorda sotish uchun yaratilgan mehnat mahsuli.

6. Rasmlarni kuzating va savollarga javob bering:



1. Qaysi rasmdagi gilam tovar ko'inishida turibdi?
2. Birinchi rasmdagi gilam tovar bo'la oladimi? U qachon tovar bo'la oladi?

7. O'qing.



Zafar bilan Farhod novvoyxonaga bordilar. Farhodning dadasi u yerda novvoy bo'lib ishlar edi. U bolalarga nonning qanday tayyorlanishini ko'rsatib berdi.

— Tayyor bo'lgan nonlarni nima qilaszlar? — qiziqib so'radi Zafar.

— Biz nonlarni non sotiladigan do'konlarga topshiramiz. U yerda non tovarga aylanadi. Sotuvchilar esa nonni sotadilar, — dedi Farhodning dadasi.

— Uyda onam yopgan non ham tovar bo'ladimi? — deb so'radi Farhod.





— Yo‘q, tovar bo‘lmaydi. Non bozorga olib chiqilib sotilgandagina tovar bo‘ladi, — dedi Farhodning dadasi.

— Nonni sotishdan tushgan pulni nima qilasiz? — deb so‘radi Zafar.

— Bu pulni un, achitqi kabi xomashyolarni sotib olishga ishlatamiz, davlatga soliq to‘laymiz, qolgan qismini esa o‘z ehtiyojlarimizni qondirishga ishlatamiz, — deb javob berdi Farhodning dadasi.

— Soliq nima, dada? — deb savol berdi Farhod.

— Soliq — bu davlatga to‘lanadigan majburiy to‘lov. Barcha daromad qiladigan odamlar davlatga soliq to‘lashlari shart. Davlat bu pullarni xalqning ehtiyojlari uchun sarflaydi, — dedi dadasi.

### Savollarga javob bering:

1. Qachon non tovarga aylanar ekan?
2. Qanday nonni tovar deb atay olmaymiz?
3. Novvoy o‘z daromadini qanday qilib sarf qilar ekan?
4. Soliq nima ekan?

### 8. Rasmlarni kuzating va savollarga javob bering:

1. Bu rasmlardan qaysi birida non tovar bo‘ladi?
2. Rasmlardagi odamlardan qaysi biri davlatga soliq to‘laydi? Nega?



### 9. Katalarga joylashtirilgan narsa nomlarining bosh harflarini daftaringizga yozing va hosil bo‘lgan so‘zni o‘qing.






10. Yashiringan so'zni toping.

$60 - 1$  U       $40 + 2$  A       $30 + 2$  S  
 $30 - 6$  L       $41 + 2$  O       $24 + 3$  T  
 $18 + 4$  M       $21 + 8$  H


22   42   29   32   59   24   43   27

11. Rasmlarni kuzating va savollarga javob bering.



1. Rasmlardagi mahsulotlarni tovar desak bo'ladimi?
2. Ularning egalari davlatga nima to'laydilar?

12. Rasmlarni kuzating va savollarga javob bering:



1. Rasmlarda aks etgan kasb egalari qanday xizmat ko'rsatmoqdalar?
2. Ularga davlat ish haqini qaysi mablag'lar hisobidan to'laydi?



13. To'g'risini belgilang.

1. Do'kondagi muzqaymoq.
2. Maktab oshxonasidagi limonad.
3. Bog'dagi pishgan olmalar.
4. O'quvchining daftari.
5. Shahloxonning qo'g'irchog'i.
6. Saidbek uchun sotib olinayotgan velosiped.
7. Daryodagi baliqlar.
8. "Okean" do'konidagi baliqlar.
9. Tovuqxonangizdagi jo'jalar.
10. Oshxonadagi tovuq go'shtidan taom.

Tovar	Tovar emas
<input checked="" type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>
<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>
<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>
<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>
<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>
<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>
<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>
<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>
<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>
<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>



14. Rasmlardagi jihozlarni qaysi kasb egasi yasaydi? Ushbu tovarlar qayerlarda sotilishi mumkin?





## 1.2. Nima qayerda sotiladi? Xizmat ko'rsatish shoxobchalari

1. Rasmlar asosida gaplar tuzing va daftaringizga yozing. Tuzgan gaplaringizda quyidagi so'zlar qatnashsin: **xizmat, tovar, soliq.**



2. Rasmlardagi narsalardan nima qayerda sotilishini aniqlang va gap tuzib, daftaringizga ko'chirib yozing.

*Namuna:* O'yinchoq mashina va qo'g'irchoq o'yinchoqlar do'konida sotiladi.



O'quv qurollari do'koni

Oziq-ovqat do'koni

Uy jihozlari do'koni



O'yinchoqlar do'koni

Idish-tovoq do'koni

Kiyim-kechak do'koni



3. Rasmlarni kuzating va savollarga javob bering:



1. Rasmlardagi kishilarning kasblarini daftaringizga yozing.
2. Ular odamlarga qanday xizmat ko'rsatadilar?

4. O'qing.

### Shoxobchalar

Mansurlarning ko'chasiga yangi qo'shni ko'chib keldi. Ularning Mansur tengi Asror ismli o'g'li bor edi. Mansur u bilan tez orada do'stlashib ketdi.

Bir kuni Asror Mansurdan bu yerlarni yaxshi bilmasligi sababli non olib kelish uchun do'konga birga borishini so'radi.

Ular non do'koniga borar ekanlar, yo'l-yo'lakay Mansur Asrorni qishlog'idagi savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalari bilan tanishtirib ketdi.

— Bu joy sataroshxona, — dedi Mansur kichkina xizmat ko'rsatish shoxobchasini ko'rsatib. U Asrorga ro'znomalar





sotiladigan shoxobchani, choyxona, oshxona, poyabzal ustaxonasi va chevarxonalarni ham ko'rsatdi.

— Mana, non sotiladigan do'konga ham yetib keldik, — dedi Mansur.

Asror non sotib oldi. Ular birgalikda uyga qaytdilar. Asror qishloqdagi savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalarini bilib oldi. U endi non sotib olish uchun do'konga o'zi bora oladi.

**Savollarga javob bering:**

1. Mansur Asrorga ko'rsatgan savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalarining nomlarini daftaringizga ko'chirib yozing.
2. Siz yana qanday xizmat ko'rsatish shoxobchalarini bilasiz?

5. To'g'risini tanlang: kim qayerga boradi?

Sochini oldirmoqchi bo'lgan kishi.

Suratxona

Poyabzalini tuzatmoqchi bo'lgan kishi.

Sartaroshxona

Rasmga tushmoqchi bo'lgan kishi.

Poyabzal ustaxonasi



### 1.3. Bozorlar va ularning turlari

#### 1. O'qing.

#### Bozor

Bozor — bu har xil tovarlar sotiladigan joydir. Sotiladigan tovarning turlariga qarab bozorlar turlicha nomlanadi. Dehqon bozori, kiyim-kechak bozori, mol bozori, avtomobillar bozori haqida eshitgan bo'lsangiz kerak.



Bozorda sotuvchilar o'z tovarlarini sotadilar, xaridorlar esa ularni xarid qiladilar.


Sotuvchilar bozorda savdo qilish uchun davlatdan maxsus ruxsatnoma sotib oladilar. Bundan kelgan pul soliq sifatida davlat xazinasiga tushadi.

#### Savollarga javob bering:

1. Rasmlarga qarab, tovarlar qaysi bozorlarda sotilishini aytib bering.
2. Bozorda kimlar savdo-sotiq qiladilar?
3. Bozorda savdo qilish uchun sotuvchi kimga nima to'lashi kerak?



2. Rasmlarni kuzating va savollarga javob bering:



1. Rasmlarda qanday joylarni ko'ryapsiz?
2. Bu joylarda yana qanday tovarlar sotiladi?

3. Rebusni yeching.





4. Rasmlardagi narsalarning qaysi bozorlarda sotilishini ayting.



5. Savollarga javob bering:

1. Bozor nima?
2. Bozorning qanday turlarini bilasiz?
3. O'quvchilar uchun kerak bo'ladigan narsalar ko'proq qaysi bozorda sotiladi?





## 1.4. Sotuvchi va xaridor. Sotuvchi va xaridor o'rtasidagi savdo madaniyati

1. O'qing. Matnda duch kelgan yangi so'zlarni daftaringizga ko'chirib yozing va eslab qolishga harakat qiling.

### Bozorda

Boburning tog'asi bozorda sotuvchi bo'lib ishlaydi. Bobur tog'asining oldiga bordi.

Bobur tog'asining oldiga kelib salam berdi. U tog'asi bilan holahvol so'rashib turganida, bir odam tog'asiga murojaat qilib qoldi:

— Ko'ylaklaringizni ko'rsak bo'ladimi?

Shunda tog'asi: "Bobur, sen bu yerda biroz o'tir. Hozir men xaridorga qarashim kerak", — dedi-da, haligi kishiga ko'ylaklarni ko'rsata boshladi. Keyin u odam o'ziga loyiq ko'ylakni sotib oldi.

Xaridor ketganidan so'ng, Bobur tog'asidan: "Nega u odamni xaridor dedingiz?" — deb so'radi. Tog'asi unga tushuntirdi: "Bozorda ko'proq ikki toifadagi odamlar bo'ladi: sotuvchi va xaridor. Ular o'zaro oldi-sotdi qiladilar. Sotuvchi bozorda tovarlar sotadi, xaridor esa tovarlarni sotib oladi".

Shunday qilib, Bobur bozorda ikki toifadagi odamlar, ya'ni sotuvchi va xaridor bo'lishini bilib oldi.

### Savollarga javob bering:

1. Sotuvchi bilan xaridor oldi-sotdi qiladigan joy nima deb ataladi?
2. Bozorda kimlarni uchratish mumkin?
3. Sotuvchi qanday vazifani bajaradi?





4. Kimlarni xaridor deymiz?
5. Xaridor bilan sotuvchining o'rtasida qanday farq bor?
6. Siz bozordan olma sotib olsangiz, sotuvchi uchun kim bo'lasiz?

2. Rasmni kuzating va savollarga javob bering:

1. Rasmda qaysi joyni ko'ryapsiz?
2. Xaridor bozorda nima qiladi?
3. Sotuvchi-chi?




3. O'qing.

Besh nafar bola yozning issiq kunlarida muzqaymoq yemoqchi bo'ldi. Ulardan biri do'konga borib 1 ta muzqaymoq 100 so'm turishini aniqlab keldi. Po'latda 80 so'm, Valida 95 so'm, Murodda 110 so'm, Nodirda 85 so'm, Alida 90 so'm pul bor edi. Ular pullarini yig'ib, 5 ta muzqaymoq sotib olmoqchi bo'ldilar. Biroq bu pul 5 ta muzqaymoqqa yetmas edi. Bolalar xomush bo'lib qoldilar. Sotuvchi saxiylik qildi va bolalarning jami puliga ularning har biriga bittadan muzqaymoq berdi.

**Savollarga javob bering:**

1. Bolalar muzqaymoqni qanday narxda sotib oldilar?
2. Bolalar muzqaymoq uchun qancha kam pul berdilar?
3. Nima uchun sotuvchi bolalarga muzqaymoqni arzon narxda berib yubordi?
4. Sotuvchining bunday harakati to'g'rimi? Siz nima deb o'ylaysiz, bunday savdo bilan sotuvchi kasodga uchrashi mumkinmi?





4. Rasm asosida fikringizni ayting.

Agar siz sotuvchi bo'lsangiz, qaysi jumlani ishlatgan bo'lar edingiz?

1. Do'konimizga xush kelibsiz!
2. Bolangizni tashqariga qo'yib keling.
3. Kichkintoy, onangiz nima xarid qilib bersin?
4. Hech narsaga tegmanglar!



5. Mashqni bajaring.

- a) Madaniyatli sotuvchiga xos bo'lgan fazilatni tanlang.  
Rostgo'ylik, qo'pollik, xushmuomalalik, yolg'onchilik.



- b) Rasmlardan sotuvchining to'g'ri harakatini aniqlang.






6. Yashiringan so'zlarni toping va shu so'zlar yordamida bozorda asosan kimlar borligini aniqlang.

$20 + 2$ U	$30 + 5$ R	$40 - 7$ O	$6 + 7$ T
$64 + 8$ I	$40 + 7$ X	$30 - 5$ S	$7 - 6$ Ch
$6 + 8$ V	$10 + 8$ A	$20 + 3$ D	

25	33	13	22	14	1	72	14	18

47	18	35	72	23	33	35

7. Bozor, xaridor, sotuvchi so'zlari ishtirokida uchta gap tuzing.  
 8. "Xaridor va sotuvchi" mavzusida kichik hikoya yozing.  
 9. Rebus-krossvordni yeching. Ko'k rangdagi katakchalarda qanday so'z hosil bo'ldi? Bu so'zni tushuntirib berishga harakat qiling.






## 1.5. Bozor va do'konlardan kerakli narsalarni xarid qilish. Savdo

1. Asrorning 100 so'm puli bor. U do'kondan 75 so'mga bitta qalam va 20 so'mga bitta o'chirg'ich xarid qildi. Asrorda qancha pul qoldi?
2. 8 nafar o'quvchi do'kondan oltitadan daftar va bittadan ruchka xarid qildi. Do'konda jami nechta tovar sotilgan?
3. Lola do'kondan 25 so'mlik gugurtdan 3 ta sotib oldi va sotuvchiga 100 so'm pul berdi. Lola sotuvchidan qancha qaytim oladi?
4. Kataklarga joylashtirilgan narsa nomlarining bosh harflarini daf-taringizga yozing va yashiringan so'zni o'qing.



5. O'quvchi do'kondan nimalar sotib olishi mumkin? Nima uchun o'quvchi aynan shu narsalarni sotib olishi kerak?







6. O'qing.

## Bozor va soliq



Bozordagi sotuvchilar davlatga soliq to'lashlarini biz oldingi darslardan bilamiz. Xo'sh, xaridorlar-chi? Ular soliq to'lamaydirmi? Yo'q, ular ham davlatga soliq to'laydilar. Lekin ular soliqni bozorda emas, avvalroq, o'z ishxonalarida, oylik maosh olayotgan paytda to'lab qo'ygan bo'ladilar.

Bozorda sotuvchi va xaridorlarga xizmat ko'rsatuvchi shaxslar: yuk tashuvchilar, joylarni ijaraga beruvchilar, oshpazlar, sartaroshlar va boshqalar ham davlatga soliq to'laydilar.



### Savollarga javob bering:

1. Rasmlardagi odamlardan qaysilari davlatga soliq to'laydi?
2. Qolgan odamlar-chi? Ularning bozorda soliq to'lamasliklari sababi nimada?
3. Yig'ilgan soliqlarni davlat nima qiladi?




## II. PUL VA NARX

### 2.1. Pul bo'lmagan vaqtlarda odamlar qanday yashaganlar? Ayirboshlash

#### 1. O'qing.

Pul bo'lmagan vaqtlarda odamlar qanday yashaganlar?


Qadimda odamlar o'zlarining yashashlari uchun zarur bo'lgan narsalarni o'zlari topganlar. Hayvon va qushlarning go'shtini yeganlar. Terilarini esa kiyim-bosh va ko'rpa-yostiq o'rnida ishlatganlar. Hamma odamlar o'zlari uchun kerak bo'lgan mahsulotlarni o'zlari yaratganlar.



Vaqt o'tishi bilan odamlarning ongi o'sib borgan. Dengiz, daryo, ko'l qirg'oqlarida yashaganlar asosan baliqchilik, unumli yerda yashagan odamlar dehqonchilik, hunarmandchilik bilan shug'ullanganlar. Dehqon yetishtirgan bug'doyini temirchidan ketmon, o'roq kabi ish qurollariga almashtirgan. Temirchiga kiyim kerak bo'lsa, u tikuvchiga borgan. Tikuvchiga kerakli narsaga kiyim-kechakni almashtirgan. Odamlar o'zlari yaratgan




mahsulotlarni bir-biriga almashtirib tirikchilik qilishgan, ya'ni odamlar o'rtasida **ayirboshlash** aloqasi vujudga kelgan. Bu **iqtisodiyotning** eng dastlabki shakli edi.



### Savollarga javob bering:


1. Odamlar qadimda nimalar orqali ayirboshlash qilganlar?
2. Yuqoridagi rasmlardan foydalanib ayirboshlashni tushuntirib bering?
2. Azamat Lolaga to'rtta rangli qalamga 2 ta ruchka almashtirishni taklif qildi. Lola rozi bo'ldi. Agar Lolada 40 ta rangli qalam bo'lsa, ularning hammasini almashib olishi uchun Azamatga nechta ruchka kerak bo'ladi?
3. Ikkita ruchka va bitta daftarga o'quv sumkangizni almashtirarmidingiz? Nega?
4. Krossvordni yeching va topgan so'zlaringizni daftaringizga yozing.
  - 1) O'zi uchun kerak bo'lgan narsalarni sotib oluvchi.
  - 2) Bozorda tovar turadigan joy.
  - 3) Tovar sotiladigan shoxobcha.
  - 4) Tovarlar oldi-sotdi qilinadigan joy.
  - 5) Bozorda sotuvchi davlatga to'laydigan majburiy to'lov.





## 2.2. Pulning paydo bo'lishi qanday qulayliklarga olib keldi?

1. O'qing.



Tegirmonchi ko'ylak tiktirishi kerak. Tikuvchiga esa go'sht kerak. Qassob donini un qildirishi kerak.

Ular bu muammolarni qanday hal qiladilar?

Oldin tegirmonchi qassobga un beradi va uning evaziga qassob unga go'sht beradi. Keyin tegirmonchi go'shtni tikuvchiga beradi va o'zi xohlagan ko'ylakni tiktiradi.

Bunday almashtirishning qiyinligi sababli odamlar maxsus almashtiruvchi narsaga ehtiyoj sezganlar va pul o'rniga sigir, qo'y, otlardan foydalanganlar. Bunday "pullar"ni olib yurish noqulay bo'lganligi uchun keyinchalik guruch, tuz, makkajo'xoridan pul o'rnida foydalanganlar.

Odamlar metallga ishlov berishni o'rganganlaridan so'ng, temir, kumush va misdan tangalar yasaganlar. Shundan keyin




ular o'zlarining tovarlarini tangalarga almashtirishgan va bu tangalarga xohlagan narsalarini sotib olishgan. Bu sotuvchiga ham, xaridorga ham qulaylik tug'dirgan hamda og'ir narsalar – otni, molni yetaklab yurishdan, makkajo'xori, tuz, guruchni ko'tarib yurishdan ozod bo'lganlar.

### Savollarga javob bering:

1. Qadimda odamlar pul o'rnida qanday narsalardan foydalanganlar?
2. Tanga pullar nimalardan yasalgan?
3. Tanga pullarning qanday afzalliklari bo'lgan?

2. Rasmlarni kuzating. Rasmlarda nima aks ettirilgan?



O'quvchilarga xaltachalar beriladi. Xaltachaga saqich, qalam, ruchka, chizg'ich va boshqa narsalar solingan bo'ladi. Ularga bir-biri bilan pulsiz ayirbosh qilish topshirig'i beriladi. Keyin pullar orqali ayirboshlash qilinadi. Pulsiz ayirboshlashning murakkabligi tushuntiriladi.

**Kattalar  
uchun**



## 2.3. Pul nimaning evaziga topiladi? Pul birliklari. Qog'oz pullar va tangalar

### 1. O'qing.

Pulni sarflash oson, bunda hech qanday muammo yo'q. Lekin o'ylab ko'ring-chi, oilangizga pul qayerdan keladi?

### Oiladagi pulning to'planishi

Dadangizning  
ish haqi evaziga



Bobongiz va buvingizning  
oladigan pensiyasi evaziga



Onangizning ish  
haqi evaziga

Tomorqangizda  
yetishtirgan  
mahsulotlarni  
sotish evaziga

Ota-onangizning qo'shimcha  
ishlari evaziga

### 2. O'qing.

Dadangiz va onangiz o'zlarining barcha daromadlaridan davlatga soliq to'laydilar va bu soliq **daromad solig'i** deb ataladi.

Bobongiz va buvingizga qarilik pensiyasini davlat to'laydi. Bu pensiyalar uchun pullarni davlat aynan mana shu soliqlar orqali to'playdi.

#### Savollarga javob bering:

1. Oilangiz daromatlari qaysi manbalardan to'planar ekan?
2. Ota-onangiz davlatga to'laydigan soliqning qanday ahamiyati bor?



3. Rebusni yeching. Topilgan so'zlarning ma'nosini ayting.



4. O'qing.

Bizning mamlakatimiz pul birligi so'm bo'lib, 1 so'm – 100 tiyinga teng. AQSH pul birligi – dollar, Yevropa Ittifoqi pul birligi – yevro, Rossiya pul birligi esa rubl hisoblanadi.



O'zbek so'mi



AQSH dollari



Yevro



Rossiya rubli

**Savollarga javob bering:**

1. O'zbekistonning pul birligi qanday nomlanadi?
2. Ikki so'm necha tiyinga teng?
3. Qanday pullarni bilasiz?

5. Mamlakatimizda muomaladagi qanday qog'oz pullar va tangalarni bilasiz?



## 2.4. Nima qancha turadi? Tovar narxi. Xizmat haqi

### 1. O'qing.

Aytaylik, otangiz sigirni sotish uchun bozorga olib chiqdi. U bir xaridor bilan savdolashib, sigirni 300 000 so'mga sotdi.



= 300 000 so'm

Bozordagi bu jarayon natijasida sigirning narxi belgilandi.

Ayting-chi, sizga o'rtog'ingiz bir dona daftarni 500 so'mga sotmoqchi bo'lsa, olarmidingiz?

Yo'q, sotib olmasdingiz! Nima sababdan sotib olmaysiz? Chunki, qimmat! Lekin daftarning qimmat yoki arzonligini qayerdan bildingiz?

Do'konlarda, bozorda daftar istagancha bor va u 200 so'm yoki 250 so'm turadi. Bu sizga ma'lum. Shu sababdan siz daftarni 500 so'mga sotib olmaysiz. Mana, ko'rdingizmi, sotiladigan narsalarning, ya'ni tovarlarning narxi bozorda belgilanar ekan.

**Savolga javob bering.**

Narx qayerda belgilanar ekan?

**Kattalar  
uchun**

Tovar ayirboshlash jarayonida eng muhimi – bu narx hisoblanadi. **Narx** deb, tovar qiymatining puldagi ifodasiga aytiladi.



2. Rasmlarni kuzating va savollarga javob bering:

1



2



3



4



5



6



1. Rasmdagi narsalarning narxlarini taxminan ayting?
2. Siz bu narxlarni qayerdan bildingiz?

3. Do'konda ruchka 80 so'm, qalam 50 so'm, o'chirg'ich 25 so'm turadi. Akbar 100 so'm pulga qaysi narsalardan sotib olishi mumkin?



4. Birinchi xaridor 5 kg sabzi va 3 kg kartoshka, ikkinchi xaridor esa 6 kg sabzi va 4 kg kartoshka xarid qildi. Xarid uchun qaysi xaridor ko'proq pul to'laydi?



5. Bolalar, qani ayting-chi, nima qancha turadi?

1



2



3



Uchala narsani sotib olish uchun qancha pul kerak bo'ladi?



6. Rasmlarni kuzating va savollarga javob bering:



1. Rasmlardagi odamlarning kasblarini ayting.
2. Ular qanday daromad qilishlari mumkin deb o'ylaysiz?
3. Ular o'z daromadlaridan davlatga nima to'laydilar?
4. Ulardan qaysilari davlatdan ish haqi oladilar deb o'ylaysiz?
5. Davlat ularga ish haqini nimaning hisobidan to'laydi?

7. Yashiringan so'zni toping.



$63 - 13$  O

$62 + 8$  Q

$78 - 19$  I

$48 - 9$  S

$20 - 19$  L

39 50 1 59 70

\_\_\_\_\_



# M U N D A R I J A

## I. BOZOR VA SAVDO-SOTIQ

1.1. Tovar nima? Xizmatlar va ularning turlari. Hamma mahsulot ham tovar bo'la oladimi? Kimlar soliq to'laydi.....	3
1.2. Nima qayerda sotiladi? Xizmat ko'rsatish shoxobchalari .....	10
1.3. Bozorlar va ularning turlari .....	13
1.4. Sotuvchi va xaridor. Sotuvchi va xaridor o'rtasidagi savdo madaniyati. ....	16
1.5. Bozor va do'konlardan kerakli narsalarni xarid qilish. Savdo. ....	20

## II. PUL VA NARX

2.1. Pul bo'lmagan vaqtlarda odamlar qanday yashaganlar? Ayirboshlash .....	22
2.2. Pulning paydo bo'lishi qanday qulayliklarga olib keldi? .....	24
2.3. Pul nimaning evaziga topiladi? Pul birliklari. Qog'oz pullar va tangalar .....	26
2.4. Nima qancha turadi? Tovar narxi. Xizmat haqi .....	28



48000c

**SHERZODBEK SARIQOV, SHAHNOZAXON DADASHEVA,  
HURMATOY XOTAMOVA**

**IQTISOD VA SOLIQ ALIFBOSI**

Qayta ishlangan uchinchi nashr

*Umumiy o'rta ta'lim maktablarining  
2-sinfi uchun o'quv qo'llanma*

Toshkent – «Yangiyo'l Poligraf Servis» – 2016  
Nashriyot litsenziyasi AI № 185 10.05.2011 y.

Muharrir – J. Azimov  
Texnik muharrir – M. Riksiyev  
Musahhih – M. Riksiyeva

Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 25.01.16. Bichimi 70x90<sup>1</sup>/<sub>16</sub>.  
«Arial» garniturası. Ofset bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog'i 3,0.  
Nusxasi 60000. Buyurtma № 6-16.

**“Yangiyo'l poligraf servis” MCHJ bosmaxona.  
112001, Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumani, Samarqand ko'chasi, 44.**